O‘ZBEK XALQ O‘YINLAR LEKSIKASI (SURXONDARYO HUDUDIDA)

Xolmo‘minova Mahliyo
Termiz davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
4-kurs 409-guruh talabasi

Annotatsiya. Xalq harakatli o‘yinlari, tarixan, ularning madaniyati, turmush tarzi va an’analari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan qadimiy va zamonaviy o‘yinlar to‘plamidir. Ushbu o‘yinlar nafaqat xalqni birlashtiruvchi omil sifatida, balki jismoniy va ruhiy salomatlikni saqlash, yoshlarni tarbiyalash va milliy o‘zlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘yinlarning kelib chiqishi, asosan, turkiy xalqlarning turmush tarzidan, urush va qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatlardan olingan. Shu sababli, milliy o‘yinlar o‘z ichiga jangovar va ishlab chiqarish faoliyatlarining o‘zgarishlari, shuningdek, xalqning ko‘plab urf-odatlari va qadriyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan elementlarni oladi.

Kalit so‘zlar: *Xalq harakatli o‘yinlar, madaniyat, tarixiy rivojlanish, jismoniy tarbiya, an’analar, o‘yinlarning evolyutsiyasi.*

Annotation. Folk movement games are a collection of ancient and modern games historically connected with the culture, lifestyle, and traditions of a nation. These games play an important role not only as a factor uniting people, but also in maintaining physical and mental health, educating the younger generation, and strengthening national identity. The origin of these games is mainly related to the lifestyle of Turkic peoples, as well as activities connected with war and agriculture. Therefore, national games include elements associated with military and

productive activities, together with many customs, traditions, and values of the people.

Keywords: *Folk movement games, culture, historical development, physical education, traditions, evolution of games.*

Xalq madaniyatining tarkibiy qismi hisoblangan o‘zbek xalq harakatli o‘yinlari jismoniy madaniyat, yosh avlodni tarbiyalash hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. O‘rganilgan ilmiy-uslubiy va maxsus manbalardagi ma’lumotlarga ko‘ra, ajdodlarimizning madaniy taraqqiyoti ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va maishiy rivojlanish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Bu esa xalq o‘yinlarining milliy madaniyat va jismoniy tarbiya tizimi bilan uyg‘un holda shakllanib, rivojlanib kelganidan dalolat beradi.Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ajdodlarimiz o‘yinlarining tarixiy taraqqiyotini turli ijtimoiy tuzumlar davridagi madaniyat, ma’rifat, tarixiy voqealar hamda an’analardan alohida ajratib o‘rganib bo‘lmaydi. Xalq o‘yinlarining paydo bo‘lish tarixi jamiyat taraqqiyotining eng ilk bosqichlari — uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Tarixiy, arxeologik va etnografik manbalarda ham xalq o‘yinlarining kelib chiqishi hamda rivojlanishiga doir qiziqarli va ilmiy asoslangan ma’lumotlar uchraydi.O‘zbek xalq o‘yinlarining shakllanishi va rivojlanishi haqida muhim ma’lumotlar bir qator qadimiy va o‘rta asr yozma manbalarda ham o‘z ifodasini topgan. Jumladan, Mahmud Koshg‘ariyning Devonu lug‘otit turk, Abu Ali ibn Sinoning Tib qonunlari, Kaykovusning Qobusnoma, Umar Xayyomning Navro‘znoma, Yusuf Xos Hojibning Qutadg‘u bilig kabi asarlarda xalqning turmush tarzi, jismoniy mashg‘ulotlari va o‘yinlari haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan.Shuningdek, Husayn Voiz Koshifiyning ‘’Futuvvatnomayi Sultoniy’’,Alisher Navoiyning “Xamsa”, “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub” asarlarida ham xalq hayoti, tarbiya,

ma'naviyat va jismoniy kamolotga oid qarashlar o'z aksini topgan. Bundan tashqari, Zayniddin Vosifiyning "Nodir voqealar", Amir Temurning "Temur tuzuklari", "Temurnoma", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" kabi tarixiy asarlarda ham xalq o'yinlari va harakatli mashg'ulotlar haqida muhim ma'lumotlar uchraydi.Xalq o'yinlarining kelib chiqishi va rivojlanishi zamonaviy adabiyotlarda ham yoritilgan bo'lib, Oybekning "Alisher Navoiy" romani, "Bolalik" qissasi, Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", Mirmuhsinning "Temur Malik", Raddiy Fishning "Jaloliddin Rumiy" kabi asarlarida ham tarixiy muhit va xalq an'analari orqali o'yin madaniyatining shakllanishi badiiy tarzda ifodalangan.

O'zbek xalq o'yinlari leksikasini lingvistik jihatdan tadqiq etishda ularni tematik guruhlarga ajratish va har bir guruhga xos bo'lgan leksik-semantik maydonni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Surxondaryo viloyati hududida tarqalgan xalq o'yinlari o'zining ko'pligi, xilma-xilligi va bajarilish shakliga ko'ra nihoyatda boy bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtta katta tematik guruhga bo'lish mumkin:

1. Harakatli va jismoniy o'yinlar leksikasi.
2. Aqliy va zekkoniylik o'yinlari leksikasi.
3. So'z o'yinlari va og'zaki drama leksikasi.
4. Mavsumiy-marosim o'yinlari leksikasi.

Quyida har bir guruhdagi o'yin terminlarini Surxondaryo shevasi faktlari asosida batafsil tahlil qilishga harakat qilamiz.

1. Harakatli va jismoniy o'yinlar . Bu guruhga asosan ochiq havoda, keng maydonda o'ynaladigan, jismoniy kuch va chaqqonlikni talab qiladigan o'yinlar kiradi.Surxondaryo aholisining asosiy qismi chorvachilik vadehqonchilik bilan

shug'ullangani bois, bu turdagi o'yinlar leksikasi eng salmoqli qatlamni tashkil etadi.

"Kurash" o'yini: Surxondaryo – kurash vatani. Shu bois, bu o'yin bilan bog'liq yuzlab maxsus atamalar mavjud. Masalan, oddiy xalq tilida "polvon" deyilsa-da, shevada uning "Chopag'on" (tez harakat qiluvchi), "Olishchi" (olishuvchi) kabi sinonimlari faol qo'llaniladi. Kurash usullari nomlari ham sofdialektal xususiyatga ega: "Yonbosh", "Chala", "Halol" (sof g'alaba), "Qaytarma" (qarshi usul), "Kift" (yelka bilan yiqitish). Tilshunos E.Begmatov ta'kidlaganidek: "Kurash terminologiyasi o'zbek tilining eng qadimiy harbiy-sport leksikasini o'zida saqlab qolgan".

"Ko'pkari"o'yini:Bu o'yin atamalari asosan ot va echki bilan bog'liq. Surxondaryo shevasida "Zot" (sovrin), "Bakovul" (hakam), "Taka" (o'yin obyekti), "To'da" (olomon), "Marrani kesish" kabi iboralar keng tarqalgan. Shuningdek, otning holatini ifodalovchi "Qorabayir", "Ko'k", "Saman" kabi rang (tus) nomlari ham o'yin leksikasining ajralmas qismidir.

"Chillak" o'yini: Bolalar o'rtasidagi bu o'yinda "Zuv" (chillakni uzoqqa otish), "Anqaydi"(yutqazib qo'ydi), "Mulla mindi" (jazo turi) kabi so'zlar qo'llaniladi. "Mulla mindi" iborasi aslida "eshak mindi" o'yinidan ko'chgan bo'lib, yutqazgan o'yinchining yelkasiga minish jarayonini anglatadi.

2. Aqliy va zakkoniylik o'yinlari . Bu guruhga hisob-kitob, diqqat va mantiqni talab qiladigan o'yinlar kiradi. Surxondaryoda bu turdagi o'yinlar asosan qishki oqshomlarda ("Gap-gashtak"larda) o'ynalgan.

"To'qqiz tosh" : Bu shaxmatga o'xshash qadimiy o'yin bo'lib, unda toshlarni yurish va raqib yo'lini to'sish muhim. O'yin leksikasida "Yo'l", "Qamal" (yo'l to'sildi), "Uchlik" (uchta toshni bir qatorga tizish) kabi terminlar ishlatiladi.

Surxondaryoning Sherobod tumanida bu o'yinni "Do'l-do'l" deb ham atashadi, bu "dona-dona" so'zining fonetik o'zgarishidir.

"Besh tosh" Qizlar o'yini bo'lib, uning har bir bosqichi o'z nomiga ega: "Birlik" (bir tosh otish), "Ikkilik", "Uchlik", "To'rtlik", "Qars"(toshlarni urishtirish), "Zulm" (qiyin shart). "Zulm" so'zi arabchadan o'zlashgan bo'lib, o'yin kontekstida "murakkab vazifa" ma'nosini bildiradi.

3. So'z o'yinlari va og'zaki drama o'yinlari . Xalq o'yinlarining bu turi bevosita nutq, hozirjavoblik va so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. "Tez aytish": Surxondaryoda bu janr "Jaqildama" yoki "Biyron" deb ataladi. Undagi so'zlar asosan tovushlarning qiyin talaffuziga asoslangan (alliteratsiya). Masalan: "Qishda kishmish pishmasmish".

"Topishmoq" (Matall): Surxondaryo shevasida topishmoq aytish jarayoni "Matall aytish" deb yuritiladi. Topishmoqning javobini topa olmagan kishiga "Shahar berish" (biror shaharni ramziy sovg'a qilish) sharti qo'yiladi. Bu leksikada "Javob", "Tugun", "Yechim" kabi so'zlar faol.

"Oq terakmi, ko'k terak": Bu dramatik o'yin bo'lib, unda ikki guruh o'rtasida dialog (savol-javob) bo'ladi. O'yin leksikasida "Vakil", "Zanjir", "Uzish"kabi ijtimoiy-siyosiy ma'noga ega so'zlar qo'llaniladi.

4. Leksik-semantik munosabatlar: Surxondaryo xalq o'yinlari leksikasini tahlil qilganda, so'zlar o'rtasidagi ma'noviy munosabatlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Surxondaryo viloyatining sevimli yozuvchilaridan biri bo'lgan Tog'ay Murod ham o'zining mashhur Yulduzlar mangu yonadi asarida xalqning milliyligini aks ettiruvchi milliy o'yinlarni mahorat bilan tasvirlagan. Asarda polvonlar olishuvi va xalq davrasi quyidagicha ifodalanadi:

"To'yxona yonidagi hovlida erkaklar davra qurdi. Bu davrada olish bo'ladi... Bugungi davramizda vohamizga dong'i ketgan Bo'ri polvon o'tiribdi..."

Ushbu parchada xalq orasida keng tarqalgan kurash va polvonlik an'analari tasvirlangan bo'lib, bu Surxondaryo xalqining milliy qadriyatlari, jasorat va birlik timsoli ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, "olish" o'yini voha aholisi orasida qadimdan keng o'ynaladigan milliy o'yinlardan biri hisoblanadi. Bu o'yin nafaqat jismoniy kuchni, balki mardlik, epchillik va xalqning milliy ruhini ham namoyon etadi. Xalqimizning bebaho ma'naviy merosi hisoblangan Alpomish dostonida milliy o'yinlar va jangovar san'at turlari alohida badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Dostonda, ayniqsa, kamondan o'q otish, merganlik va kurash kabi xalq o'yinlari orqali qahramonlarning jasorati, kuch-qudrati hamda epchilligi namoyon bo'ladi. Chunonchi, dostonda Hakimbekning yoshligidanoq favqulodda qudrat egasi ekani quyidagicha tasvirlanadi: "Hakimbek yetti yoshga kirgan edi. Oltinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birinchi bo'lgan parli yoyi bor edi. Ana shu yetti yashar bola — Hakimbek shu o'n to'rt botmon yoyni qo'liga ushlab ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi. Yoyning o'qi yashinday bo'lib ketdi. Asqar tog'ining katta cho'qqisini yulib o'tdi..."

Mazkur parchada o'q-yoy otish san'ati xalqimiz orasida qadimdan shakllangan milliy mashg'ulotlardan biri ekani ifodalangan. Dostondagi asosiy qahramonlardan biri bo'lgan Barchinoy ham turmush qurish uchun alplarga bir necha shart qo'yadi. Ushbu shartlarning ikkitasi aynan merganlik va yoy tortish bilan bog'liqdir:

"….. yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga,
Men tegaman shul yoyandoz polvonga", — deydi.

Shuningdek, uchinchi shartda ham merganlik mahorati ulug'lanadi:

"Ming qadamdan tanga pulni urganga,
Men tegaman shul qarchig'ay merganga."

Bu misralar xalqimiz orasida yoyandozlik va merganlik san'ati qadimdan yuksak qadrlanganini ko'rsatadi. Doston davomida kurash lavhalari ham keng va ta'sirchan tarzda tasvirlangan. Jumladan, Barchinoyning to'rtinchi sharti alplarni kurashda yengish bilan bog'liq bo'lib, u Alpomishga qarata shunday deydi:

"Yiqolmasang, bizga bergin navbatni,
Juda keldi Barchin yerning g'ayrati,
Ushlaganda ko'kka otmay ne bo'pti?
Yiqolmasang, tura, navbat tilayin!"

Ushbu misralarda kurash xalqimizning eng qadimiy va sevimli milliy o'yinlaridan biri sifatida tasvirlangan bo'lib, unda mardlik, kuch, matonat va g'urur kabi fazilatlar ulug'lanadi. Husayn Voiz Koshifiy ham kurash san'atining o'ziga xos xususiyatlari hamda uning turlari haqida qimmatli ma'lumotlar bergan. U kurashning ikki turi mavjudligini ta'kidlab, shunday yozadi:

"...ikki xil turi bor, deb aytgil: birinchisi – qabz, ya'ni qo'l bilan ushlash, ikkinchisi – iztiror, ya'ni ixtiyorsiz holda olishish. Agar bularning har biri qaysi yurtlarda qo'llanadi deb so'rasalar, aytgil: qo'l ushlab kurash tushish (qabz usuli) Xuroson va Iroq aholisiga xos bo'lib, uni shahriyor ham deb ataydilar. Iztiror usulida kurash tushish (erkin kurash) esa Gilon, Shirvon va Ozarbayjonning ayrim hududlarida tarqalgan bo'lib, uni daylamor ham deydilar".

Mazkur fikrlar kurash san'ati Sharq xalqlari orasida qadimdan keng tarqalganini va uning turli hududlarda o'ziga xos usullari shakllanganini ko'rsatadi. Husayn Voiz Koshifiy kurashni oddiy jismoniy mashq emas, balki murakkab san'at turi sifatida baholaydi. U bu haqda quyidagicha fikr bildiradi:

"...kurash tushish san'atning ilmiki, bu ilmning mashhur usullari juda ko'p. Ular uch yuz tugun va bandlar (usul va tadbirlar)dan iboratdir va ularning har biri yana bir necha usullarga ajraladi. Ushbu usullarni daf etish, ya'ni qarshi usullar yo'llari ham bor. Agar bularning barchasi yig'ilsa, bir ming sakkiz yuz usul kelib chiqadi..."

Ushbu mulohazalar kurashning xalqimiz ma'naviy hayotida muhim o'rin tutganini, unda nafaqat jismoniy kuch, balki mahorat, tajriba, epchillik va strategik fikrlash ham katta ahamiyat kasb etganini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq o'yinlarining leksikasi xalqimizning qadimiy madaniyati, turmush tarzi va ma'naviy qarashlarini o'zida mujassam etgan muhim til qatlamlaridan biridir. Ushbu o'yinlarga oid so'z va iboralar – "kurash", "yoyandozlik", "merganlik", "polvon", "bakovul", "davra", "olish", "shart", "navbat" kabi leksik birliklar xalqning jismoniy tarbiya, mardlik, epchillik va jasoratga bo'lgan munosabatini ifodalaydi.Tarixiy va badiiy manbalarda xalq o'yinlariga oid leksik birliklar keng qo'llanilgan bo'lib, ular orqali davrning ijtimoiy hayoti, urf-odatlari va qadriyatlari yorqin aks ettirilgan. Ayniqsa, "Alpomish" dostoni kabi asarlarda kurash, yoy tortish va merganlik bilan bog'liq atamalar xalq tilining boyligini va milliy tafakkurning shakllanganini ko'rsatadi.

Shuningdek, kurash san'ati va uning turlari haqida berilgan qadimiy manbalarda bu faoliyat nafaqat jismoniy mashq, balki murakkab mahorat va aniq qoidalarga ega bo'lgan tizim sifatida tasvirlangan. Bu esa xalq o'yinlari leksikasining chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanini anglatadi. Umuman olganda, o'zbek xalq o'yinlari leksikasi milliy til boyligining muhim qatlami bo'lib, u xalqimizning ma'naviy qadriyatlari, tarixiy xotirasi va madaniy merosini saqlash hamda kelajak avlodga yetkazishda katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aripov Z. Xalq o'yinlarining etnopedagogik tasnifi /"Yangi O'zbekistonning umidli yoshlari" 1(2)-son 2022-yil, 28-mart. 27-b
2. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomayi Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. T., A. Qodiriy nomidagi "Xalq merosi" nashriyoti, 1994, 84-bet.
3. Eshqurbonova, A. (2025). Dialoglarda murojaat shakllarining pragmatik tasnifi. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar, 1(6), 238-242.
4. Najibullo, S., & Manzura, B. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES [J]. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, *11*(02).